


## 2019-yil 1 noyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyatimizda 7050 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2987 taga ko'pdir.






## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-noyabr holatiga 32512 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26,7 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,2 % savdo, 19,1 % sanoat, 9,0 % qurilish, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,0 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 25,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlar**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.11.2019 yil	
	01.11.2018 yil	01.11.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>25663</b>	<b>32512</b>	<b>126,9</b>	<b>100,0</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2001	2508	125,3	7,7
Sanoat	4760	6199	130,2	19,1
Qurilish	2246	2927	130,3	9,0
Savdo	5702	7870	138,0	24,2
Tashish va saqlash	828	991	119,7	3,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1632	2414	147,9	7,4
Axborot va aloqa	441	514	116,6	1,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	562	680	121,0	2,1
Boshqa turlari	7491	8409	112,3	25,9

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (10052 ta), Urgut (2758 ta), Pastdarg'om (2682 ta) va Samarqand (2339 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qo'shrabot (728 ta), Paxtachi (830 ta) hamda Nurobod (938 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 30881 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6431 ta (26,3 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,2 % savdo, 19,1 % sanoat, 9,0 % qurilish, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,1 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (9637 ta), Urgut (2719 ta), Pastdarg'om (2505 ta) Samarqand (2153 ta) va Ishtixon (1595 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (695 ta), Paxtachi (786 ta) hamda Nurobod (875 ta) tumanlarida esa korxonalarining soni kamligini kuzatish mumkin.


### Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 7050 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,7 martaga ko'pdir.

**Yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning  
yillar kesimida soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Samarqand shahri (2101 ta), Samarqand (616 ta), Pstdarg'om (582 ta) va Urgut (487 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (153 ta), Narpay (172 ta) hamda Paxtachi (190 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (2268 ta), sanoat (1701 ta), boshqa faoliyat turlari (749 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (738 ta), qurilish (633 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (527 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (122 ta), axborot va aloqa (137 ta) hamda tashish va saqlash (175 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




**Tijorat korxonalarini**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019-yil 1-noyabr holatiga 25330 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 5541 ta, oilaviy korxonalar - 3985 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 15280 ta, unitar korxonalar - 243 ta, aksiyadorlik jamiyati - 30 ta va boshqalar 251 tani tashkil etgan.




**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat  
ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)***Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**


2019-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 516 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 132 taga yoki 34,4 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-noyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 516 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonalar va tashkilotlarning eng yuqorisi Samarqand shahri (239 ta), Urgut (47 ta), Jomboy (38 ta) va Samarqand (32 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Narpay (5 ta), Paxtachi (7 ta) hamda Nurobod va Kattaqo'rg'on (9 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda




### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 366 tasi qo'shma korxonalar, 150 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining faollik darajasi, %**




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>516</b>	<b>366</b>	<b>150</b>
Samarqand sh	239	151	88
Kattaqo'rg'on sh	16	12	4
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	21	20	1
Bulung'ur	18	8	10
Jomboy	38	33	5
Ishtixon	11	6	5
Kattaqo'rg'on	9	8	1
Qo'shrabot	13	5	8
Narpay	5	4	1
Payariq	13	7	6
Pastdarg'om	22	17	5
Paxtachi	7	5	2
Samarqand	32	26	6
Nurobod	9	9	-
Urgut	47	43	4
Tayloq	16	12	4

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 140 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 33 taga ko'paygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahar (49 ta yoki jami ulushi 35,0 %), Qo'shrabot hamda Samarqand (11 ta yoki 7,9 %), Jomboy (10 ta yoki 7,1 %), Pastdarg'om (9 ta yoki 6,4 %), Kattaqo'rg'on shahar va Bulung'ur (8 ta yoki 5,7 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Narpay (1 ta yoki 0,7 %), Paxtachi (2 ta yoki 1,4 %), Nurobod va Tayloq (3 ta yoki 2,1 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### 2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda




Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 24 ta, Turkiya Respublikasi 21 ta, Rossiya Federatsiyasi - 22 ta, Koreya Respublikasi – 10 ta hamda Afg'oniston Islom Respublikasi - 15 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida Isroil Davlati, Tojikiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi,

Belorussiya Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (64 ta), savdo (14 ta), qurilish (15 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (23 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqa (1 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (2 ta), tashish va saqlashda (4 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (8 ta) tashkil etgan.


### 2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-noyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 25193 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-noyabr holatiga qaraganda 32,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 8310 tasi (33,0 %) Samarqand shahri, 2243 tasi (8,9 %) Urgut, 2027 tasi (8,0 %) Pastdarg'om hamda 1866 tasi (7,4 %) Samarqand tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jami ulushi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 25193 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 7436 tasi (29,5 %) - savdo, 5861 tasi (23,3 %) - sanoat, 2756 tasi (10,9 %) - qurilish, 2293 tasi (9,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 2215 tasi (8,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi,

935 tasi (3,7 %) - tashish va saqlash, 540 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 474 tasi (1,9 %) – axborot va aloqa sohasi, shuningdek 2683 tasi (10,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni to'g'risida MA'LUMOT


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

*birlikda*

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	01.11.2019 y.	01.11.2019 y.	2019 yil yanvar-oktyabr
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>26604</b>	<b>25193</b>	<b>6701</b>
Samarqand sh	8633	8310	2028
Kattaqo'rg'on sh	890	831	207
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	1057	957	256
Bulung'ur	939	901	233
Jomboy	931	919	306
Ishtixon	1354	1285	392
Kattaqo'rg'on	1187	1130	339
Qo'shrabot	499	468	139
Narpay	784	761	161
Payariq	1452	1262	347
Pastdarg'om	2194	2027	560
Paxtachi	581	552	183
Samarqand	2039	1866	595
Nurobod	718	659	210
Urgut	2276	2243	453
Tayloq	1070	1022	292



**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 6701 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,8 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahri (2028 ta), Samarqand (595 ta), Pastdarg'om (560 ta) va Urgut (453 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (139 ta), Narpay (161 ta), Paxtachi (183 ta) hamda Nurobod (210 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2265 ta), sanoatda (1698 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (738 ta), qurilishda (631 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (525 ta) va boshqa turlarida (429 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (103 ta), axborot va aloqada (137 ta) hamda tashish va saqlashda (175 ta) tashkil etilgan.


### Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-noyabr holatiga 4197 tani tashkil etib, ulardan 3985 tasi yoki 94,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 71,5 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

#### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




#### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,4 % yoki 1291 tasi sanoat, 27,9 % yoki 1114 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 21,7 % yoki 864 tasi savdo, 8,0 % yoki 318 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 29 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 13 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 35 tasi qurilish, 1,0 % yoki 39 tasi axborot va aloqa hamda 7,1 % yoki 282 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1703</b>	<b>100,0</b>
Samarqand sh	433	25,4
Kattaqo'rg'on sh	15	0,9
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	49	2,9
Bulung'ur	57	3,3
Jomboy	107	6,3
Ishtixon	147	8,6
Kattaqo'rg'on	70	4,1
Qo'shrabot	8	0,5
Narpay	46	2,7
Payariq	144	8,5
Pastdarg'om	202	11,9
Paxtachi	8	0,5
Samarqand	194	11,4
Nurobod	15	0,9
Urgut	81	4,8
Tayloq	127	7,5

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 1703 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,1 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Samarqand shahri (433 ta), Pastdarg'om (202 ta), Samarqand (194 ta) va Payariq tumanlari (144 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot va Paxtachi tumanlarida (8 ta) tashkil etilgan.

### 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,9 % yoki 561 tasi sanoat, 27,3 % yoki 465 tasi savdo, 26,8 % yoki 456 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 7,4 % yoki 126 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,4 % yoki 7 tasi qurilish, 0,2 % yoki 4 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,6 % yoki 11 tasi tashish va saqlash, 0,6 % yoki 11 tasi axborot va aloqa hamda 3,8 % yoki 62 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

**KTYADR** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentyabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risida”gi 274-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9-fevraldagi 66-son qaroriga asosan ro‘yxatdan o‘tkazuvchi (Adliya vazirligi va Davlat xizmatlari agentligi) organlari tomonidan berilgan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.



Samarqand viloyati  
statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni  
yuritish bo‘limi  
Tel.:71-230-85-42 (43)